

# Nyu-York shtatining ikkitillilik muhri

Bittadan ortiq tilda so'zlashasizmi? Yoki boshqa tilni o'rganyapsizmi?  
Nyu-York shtatining ikkitillilik muhri borasida maktabingiz  
bilan gaplashing!

## Nyu-York shtatining ikki tillilik muhri (NYSSB) nima?

Nyu-Yorkshtatining ikkitillilik muhri (NYSSB) ingliz tilini va kamida bitta boshqa tildan tinglaydigan, so'zlashadigan va yozadigan yuqori sinflar bitiruvchilarini e'tirof etadi. NYSSB diplom olish talablariga javob beradigan hamda ingliz va boshqa tilda so'zlashish ko'nikmasiga ega har qanday bitiruvchi o'quvchiga taqdim etiladi. Qabul qiluvchilarning diplomiga maxsus muhr uriladi va bitiruv tadbirida medalyon taqiladi.

## NYSSBning qanday afzalliklari bor?

- Yuqori sinflar maktabi baholar tabeli va diplomini kuchaytiradi
- Kollejga arizalar kuchini yaxshilaydi
- Uyda so'zlashiladigan til ko'nikmalarini saqlaydi va rivojlantiradi
- Global jamiyatda karyeralarga tayyorlaydi
- Madaniy o'zlik va ikki tillilik ko'nikmalarini e'tirof etadi
- Tanlangan kollejlarda oldindan o'qish uchun kreditlar taqdim etadi



## Kimlar muvofiq?

Nyu-York shtatining ikkitillilik muhrini taklif etadigan maktabdagi ingliz tili va boshqa tilni bilgan yoki o'rganayotgan har qanday o'quvchiga beriladi. Bunga uyda boshqa tilda so'zlashadigan yoki maktabda o'rgangan har qanday dunyo tilida so'zlashadigan o'quvchilar kiradi. Maktablar har yili yanvar oyidan oldin ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tishlari lozim.

## Men qanday qilib NYSSB olishim mumkin?

✓ **Nyu-York shtati davlat imtihoni diplomining**  
barcha talablarini bajaring

VA

✓ Ingliz tilida **kamida uch ball to'plang** va

✓ boshqa jahon tilida **kamida uch ball**  
**to'plang.**



Batafsil ma'lumot olish  
uchun [bit.ly/NYCPS-](https://bit.ly/NYCPS-Biliteracy)  
[Biliteracy](https://bit.ly/NYCPS-Biliteracy) sahifasiga kiring.

Bu ballarni to'plashning ko'plab yo'llari bor, masalan, til kurslarida yuqori baho olish, imtihonlarda kuchli natijalarga erishish yoki Capstone Biliteracy loyihasini bitirish shular jumlasidandir.

## Maktabimda ikkitillilik muhri taklif etilishini qanday bilishim mumkin?

Siz maktabingizda bunday dasturi bor yoki yo'qligini bilish uchun [schools.nyc.gov/NYSSB](https://schools.nyc.gov/NYSSB) sahifasiga kirishingiz mumkin.

## Maktabim NYSSB taklif qilmasa nima bo'ladi?

Jahon tillarini o'qituvchi ustozingiz, ota-onalar muvofiqlashtiruvchisi yoki mudir bilan bu jarayonni boshlash borasida gaplashing yoki [NYSSB@schools.nyc.gov](mailto:NYSSB@schools.nyc.gov) manziliga yozing.

## NYSSB kollej uchun kredit ballarini beradimi?

Ha, ayrim kollejlarda  
NYSSB uchun kredit  
ballari yoki oldindan  
o'qishga joylashni  
taklif etadi.

Qaysi CUNY kampuslari  
oldindan ta'lim uchun  
kredit ballarini taklif  
etishini bilib oling:  
[bit.ly/CUNYNYSSB](https://bit.ly/CUNYNYSSB)

Batafsil ma'lumot  
olish uchun  
kerakli kollej yoki  
universitet bilan  
bog'laning.

Savollar bormi? Maktabingiz bilan bog'laning yoki [NYSSB@schools.nyc.gov](mailto:NYSSB@schools.nyc.gov) manziliga yozing.